

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan Birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning 2026 – 2028-yillar uchun budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlarning 2026-yil I yarim yillik ijrosini baholash natijalari yuzasidan

MA’LUMOT

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 26-dekabrda O‘zbekiston Respublikasining “2026-yil uchun O‘zbekiston Respublikasining Davlat budjeti to‘g‘risida”gi Qonuni ijrosini ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida” PQ – 388-son qarorining 6-ilovasi bilan birinchi darajali budjet mablag‘larini taqsimlovchilarning 2026–2028-yillar uchun budjet mablag‘laridan foydalanish bilan bog‘liq maqsadli indikatorlar tasdiqlangan.

Bunda, mazkur qarorning 6-ilovasi 49-pozitsiyada Davlat aktivlarini boshqarish agentligining **Strategik maqsadi** sifatida Strategik maqsad – davlat ishtirokidagi korxonalarni hamda davlat ko‘chmas mulk obyektlarini xususiy sektorga sotish orqali davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish hamda davlat ulushi mavjud xo‘jalik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish natijasida boshqaruv tizimini takomillashtirish nazarda tutilgan.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi uchun **2026-yilda 5 ta** yo‘nalish bo‘yicha indikatorlar belgilangan. Jumladan,

T/r	Dastur va maqsadli indikatorlar nomi	O‘lchov birligi	2026-yil prognoz
49.	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	mlrd so‘m	13,1
	Strategik maqsad — davlat ishtirokidagi korxonalarni hamda davlat ko‘chmas mulk obyektlarini xususiy sektorga sotish orqali davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish hamda davlat ulushi mavjud xo‘jalik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish natijasida boshqaruv tizimini takomillashtirish		
49.1.	Budjet dasturi nomi: Ma’muriy boshqaruv	mlrd so‘m	6,1
	<i>Yakuniy natija ko‘rsatkichi</i>		
	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash natijalari bo‘yicha reyting tizimida Davlat aktivlari agentligi ko‘rsatkichi	ball	81,0
	Raqamli rivojlanish darajasini reyting baholash tizimida (nis.egov.uz) Davlat aktivlari agentligi ko‘rsatkichi	ball	85,0
	<i>Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi</i>		
	Tizim tashkilotlarida o‘tkaziladigan rejali ichki audit tadbirlari hamda rejadan tashqari o‘rganishlar soni	ta	6,0
49.2.	Budjet dasturi nomi: Davlat mulkini xususiylashtirish	mlrd so‘m	1,9
	<i>Bevosita (to‘g‘ridan-to‘g‘ri) natija ko‘rsatkichi</i>		
	Savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalardagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) va davlat ko‘chmas mulk obyektlari soni	ta	550,0
	Savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalardagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) soni	ta	100,0

	Savdoga chiqariladigan davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarning ko'chmas mulk obyektlari soni	ta	450,0
	Savdoga chiqariladigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari	gektar	4 000,0
49.3	Budjet dasturi nomi: Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish	mlrd so'm	1,4
	<i>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</i>		
	Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolari jalb etish	nafar	10,0
	Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga ayol nomzodlarni jalb etilish	nafar	5,0
49.4.	Budjet dasturi nomi: Davlat aktivlarining hisobini yuritish	mlrd so'm	0,8
	<i>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</i>		
	Respublika mulki obyektlarini bir tashkilotdan boshqa bir davlat tashkilotiga operativ boshqaruv huquqi asosida beg'araz berish	ta	60,0
49.5.	Budjet dasturi nomi: Xususiyashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi	mlrd so'm	3,0
	<i>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</i>		
	Ilmiy ishlanmalarni (doklad ma'lumotnomalarini, tahliliy materiallar, uslubiy tavsiyalar, monografiyalar, maqolalar va ilmiy va amaliy xarakterdagi boshqa hujjatlar) tayyorlash	ta	138,0

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2026-yil 27-yanvardagi "Davlat aktivlarini boshqarish agentligining 2026-yil uchun maqsadli indikatorlarining yarim yilliklar kesimida prognoz ko'rsatkichlarini tasdiqlash to'g'risida"gi 50-sonli buyrug'i (keyingi o'rinlarda – buyruq) qabul qilingan hamda maqsadli indikatorlar ko'rsatkichlari yarim yilliklar kesimida tasdiqlangan.

T/r	Dastur va maqsadli indikatorlar nomi	O'lchov birligi	2026-yil I yarim yillik rejasi (prognoz)
49.	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	mlrd so'm	7,1
	Strategik maqsad — davlat ishtirokidagi korxonalarni hamda davlat ko'chmas mulk obyektlarini xususiy sektorga sotish orqali davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish hamda davlat ulushi mavjud xo'jalik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish natijasida boshqaruv tizimini takomillashtirish		
49.1.	Budjet dasturi nomi: Ma'muriy boshqaruv	mlrd so'm	3,4
	<i>Yakuniy natija ko'rsatkichi</i>		
	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash natijalari bo'yicha reyting tizimida Davlat aktivlari agentligi ko'rsatkichi	ball	
	Raqamli rivojlanish darajasini reyting baholash tizimida (nis.egov.uz) Davlat aktivlari agentligi ko'rsatkichi	ball	85
	<i>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</i>		
	Tizim tashkilotlarida o'tkaziladigan rejali ichki audit tadbirlari hamda rejadani tashqari o'rganishlar soni	ta	3,0
49.2.	Budjet dasturi nomi: Davlat mulkini xususiyashtirish	mlrd so'm	1,1
	<i>Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi</i>		

	Savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalardagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) va davlat ko'chmas mulk obyektlari soni	ta	190,0
	Savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalardagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) soni	ta	40,0
	Savdoga chiqariladigan davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining ko'chmas mulk obyektlari soni	ta	150,0
	Savdoga chiqariladigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari	gektar	1 600,0
49.3	Budjet dasturi nomi: Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish	mlrd so'm	0,8
	<i>Bevosita (to 'g'ridan-to 'g'ri) natija ko'rsatkichi</i>		
	Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolari jalb etish	nafar	5,0
	Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga ayol nomzodlarni jalb etilish	nafar	2,0
49.4.	Budjet dasturi nomi: Davlat aktivlarining hisobini yuritish	mlrd so'm	0,4
	<i>Bevosita (to 'g'ridan-to 'g'ri) natija ko'rsatkichi</i>		
	Respublika mulki obyektlarini bir tashkilotdan boshqa bir davlat tashkilotiga operativ boshqaruv huquqi asosida beg'araz berish	ta	25,0
49.5.	Budjet dasturi nomi: Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi	mlrd so'm	1,5
	<i>Bevosita (to 'g'ridan-to 'g'ri) natija ko'rsatkichi</i>		
	Ilmiy ishlanmalarni (doklad ma'lumotnomalarini, tahliliy materiallar, uslubiy tavsiyalar, monografiyalar, maqolalar va ilmiy va amaliy xarakterdagi boshqa hujjatlar) tayyorlash	ta	58,0

O'z navbatida, maqsadli indikatorlar ko'rsatkichlari Davlat aktivlarini boshqarish agentligining tegishli tarkibiy bo'linmalari tomonidan taqdim qilingan ma'lumotlar asosida tahlil qilinganda quyidagilar ma'lum bo'ldi:

49.1-pozitsiya, budjet dasturining nomi "Ma'muriy boshqaruv" bo'yicha.

Mazkur bandeda belgilangan budjet dasturining nomi "Ma'muriy boshqaruv" bo'lib, mazkur maqsadli indikatorlar ko'rsatkichlarini ijro etilishi uchun davlat budjetidan 2026-yilda **6,1 mlrd so'm** mablag'lar ajratilishi rejalashtirilgan hamda quyidagi indikator ko'rsatkichlari belgilangan.

1. Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash natijalari bo'yicha reyting tizimida Davlat aktivlari agentligi ko'rsatkichi **81 ball** belgilangan bo'lib, mazkur baholash natijalari yil yakunlari bo'yicha baholashdan o'tkaziladi hamda saytda e'lon qilinadi.

2. Raqamli rivojlanish darajasini reyting baholash tizimida (nis.egov.uz) Davlat aktivlari agentligi ko'rsatkichi **85 ball** belgilangan bo'lib, mazkur baholash natijalari yarim yillikda hamda yil yakunlari bo'yicha baholashdan o'tkaziladi hamda saytda e'lon qilinadi.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligining raqamli reyting baholash tizimi 1-yarim yillik bo'yicha baholash natijalari saytda elon qilinmagan. Shunga ko'ra mazkur indikator ko'rsatkichi ijrosi ham yil yakunlari bo'yicha tahlil qilinadi.

3. Tizim tashkilotlarida o'tkaziladigan rejali ichki audit tadbirlari hamda rejadan tashqari o'rganishlar soni **6 ta** belgilangan.

O‘z navbatida, vazirlik va idoralarning Ichki audit xizmatlarining yillik rejalari qonunchilikda belgilangan tartibda Hisob palatasining “Davlat auditi” axborot portali orqali ro‘yxatga olinib, Hisob palatasi bilan kelishiladi hamda belgilangan tartibda tasdiqlanadi.

Shunga ko‘ra, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Ichki audit xizmati bo‘limining 2026-yil uchun nazorat tadbirlarining yillik rejasi tasdiqlangan bo‘lib, 2026-yil 1-yarim yillikda **3 ta** audit tadbiri o‘tkazilishi belgilangan.

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi Ichki audit xizmati bo‘limi tomonidan 2026-yil 1-yarim yilligida **3 ta** audit tadbiri (*Davlat aktivlarini boshqarish agentligining Buxoro, Toshkent va Samarqand viloyatlari hududiy boshqarmalarida*) o‘tkazilgan hamda yarim yilliklik reja 100 foizga hamda **yillik reja 50,0 foizga bajarilgan.**

“**Ma‘muriy boshqaruv**” bandida belgilangan maqsadli indikatorlar ko‘rsatkichlarini ijro etilishi uchun davlat budjetidan **6,1 mlrd so‘m** mablag‘lar ajratilishi rejalashtirilgan bo‘lib, 2026-yil 1-yarim yillikda mazkur rejalashtirilgan mablag‘lardan **2,4 mlrd so‘m** xarajat qilingan, yoki rejalashtirilgan mablag‘lar **39,3 foizga o‘zlashtirilgan.**

49.2-pozitsiya, budjet dasturining nomi “Davlat mulkini xususiylashtirish” bo‘yicha.

Mazkur pozitsiyada belgilangan budjet dasturining nomi “Davlat mulkini xususiylashtirish” bo‘lib, maqsadli indikatorlar ko‘rsatkichlarini ijro etilishi uchun davlat budjetidan **1,9 mlrd so‘m** mablag‘lar ajratilishi rejalashtirilgan hamda quyidagi indikator ko‘rsatkichlari belgilangan.

1. Qaror bilan savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalardagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) va davlat ko‘chmas mulk obyektlari soni **550 ta** belgilangan bo‘lsa, buyruq bilan 2026-yil 1-yarim yillik rejasi **190 ta** etib belgilangan.

O‘z navbatida, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan 2026-yil 1-yarim yilligida jami **425 dona** davlat ishtirokidagi korxonalardagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) va davlat ko‘chmas mulk obyektlari savdoga chiqarilgan hamda indikator ko‘rsatkichi 1-yarim yillikda 223,7 foizga, yillik ko‘rsatkichga nisbatan esa **77,3 foizga bajarilgan.**

2. Qaror bilan savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalardagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) soni **100 ta** belgilangan bo‘lsa, buyruq bilan 2026-yil 1-yarim yillik rejasi **40 ta** etib belgilangan.

O‘z navbatida, mazkur indikator 1-qismda belgilangan indikator ko‘rsatkichining yoyilmasi (tarkibiy qismi) bo‘lib, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan 2026-yil 1-yarim yilligida jami **34 dona** davlat ishtirokidagi korxonalardagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) savdoga chiqarilgan hamda indikator ko‘rsatkichi 1-yarim yillikda 85,0 foizga, yillik ko‘rsatkichga nisbatan esa **34,0 foizga bajarilgan.**

3. Qaror bilan savdoga chiqariladigan davlat ko'chmas mulk obyektlari soni **450 ta** belgilangan bo'lsa, buyruq bilan 2026-yil 1-yarim yillik rejasi **150 ta** etib belgilangan.

O'z navbatida, mazkur indikator 1-qismda belgilangan indikator ko'rsatkichining yoyilmasi (tarkibiy qismi) bo'lib, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan 2026-yil 1-yarim yillikda jami **391 dona** davlat ko'chmas mulk obyektlari savdoga chiqarilgan hamda indikator ko'rsatkichi 1-yarim yillikda 260,7 foizga, yillik ko'rsatkichga nisbatan esa **86,9 foizga bajarilgan**.

4. Qaror bilan savdoga chiqariladigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari (maydoni) **4 000,0 gektar** belgilangan bo'lsa, buyruq bilan 2026-yil 1-yarim yillik mazkur indikator rejasi **1600,0 gektar** etib belgilangan.

O'z navbatida, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan 2026-yil 1-yarim yillikda jami **3 833 gektar** qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari savdoga chiqarilgan bo'lib, mazkur indikator ko'rsatkichi 1-yarim yillikda 239,6 foizga, yillik ko'rsatkichga nisbatan esa **95,8 foizga bajarilgan**.

“Davlat mulkini xususiylashtirish” bandida belgilangan maqsadli indikatorlar ko'rsatkichlarini ijro etilishi uchun davlat budjetidan **1,9 mlrd so'm** mablag'lar ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, 2026-yil 1-yarim yillikda mazkur rejalashtirilgan mablag'lardan **0,7 mlrd so'm** xarajat qilingan, yoki rejalashtirilgan mablag'lar **36,8 foizga o'zlashtirilgan**.

49.3. band, budget dasturining nomi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish” bo'yicha.

Mazkur bandeda belgilangan budget dasturining nomi “Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish” bo'lib, mazkur bandeda belgilangan maqsadli indikatorlar ko'rsatkichlarini ijro etilishi uchun davlat budjetidan **1,4 mlrd so'm** mablag'lar ajratilishi rejalashtirilgan hamda quyidagi indikator ko'rsatkichlari belgilangan.

1. Qaror bilan Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga jalb etiladigan mustaqil a'zolar soni **10 nafar** belgilangan bo'lsa, buyruq bilan 2026-yil 1-yarim yillik rejasi **5 ta** etib belgilangan.

O'z navbatida, davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan 2026-yil 1-yarim yillikda jami **27 nafar** mustaqil a'zolar davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga jalb etilgan hamda indikator ko'rsatkichi 1-yarim yillikda 540,0 foizga, yillik ko'rsatkichga nisbatan esa **270,0 foizga bajarilgan**.

№	STIR	Korxona nomi	Kuzatuv kengashi tarkibi					Acoc
			Jami kuzatuv kengashi aʼzolari soni	shundan mustaqil aʼzo soni	F.I.Sh.	Ulush (%)	aʼzolikka saylangan sanasi	
Jami			27					
1	306605769	"Hududgaztaʼminot" AJ	7	1	V. Lavrentyev	14,3	10.03.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/8/14664
2	306347741	"Oʻzbekiston MET" AJ	7	1	V. Lavrentyev	14,3	13.02.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/6/13685

3	306350099	“Hududiy elektr tarmoqlari” AJ	7	1	Martin Fritsch	14,3	10.03.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/8/14649
4	306349304	"Issiqlik elektr stansiyalari" AJ	9	2	Martin Fritsch	22,2	27.02.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/8/14635
					V. Lavrentyev			
5	304952767	“O‘zbekgidroenergo” AJ	7	2	Martin Bernshteyn	28,6	05.03.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/8/14650
					Kakurin Nikita Ivanovich			https://openinfo.uz/ru/facts/8/14650
6	203366731	"O‘zbektelekom" AJ	11	3	Martin Bernshteyn	27,3	13.03.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/8/14659
					Kristi Mayn Grovs			https://openinfo.uz/ru/facts/8/14659
					Daniel Zibert			https://openinfo.uz/ru/facts/8/14659
7	201042345	"O‘zagrosug‘urta" AJ	9	1	Elmirzayev Samariddin Eshquvatovich	11,1	10.03.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/6/13746
8	201589463	"Yangi texnologiyalar ilmiy-axborot markazi" AJ	5	1	Asqaraliyev Odilbek Ulug‘bek o‘g‘li	20,0	05.01.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/6/13550
9	305109064	“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ	7	1	Olga Paskault	14,3	07.05.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/8042
10	305109064	“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ	7	1	Dmitriy Samko	14,3	07.05.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/8042
11	305109064	“Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi” AJ	7	1	Xamid Irgashev	14,3	07.05.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/8042
12	311415426	"O‘zbekiston texnologik metallar kombinati" AJ	7	1	Kasimov Mavlon Abdullax ashimovich	14,3	10.06.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/8/14833
13	311415426	"O‘zbekiston texnologik metallar kombinati" AJ	7	1	Rashidov Farrux Ismoilovich	14,3	10.06.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/8/14833
14	200833707	"O‘zsanoatqurilishbank" ATB	11	1	Ayupova Sayyora	9,1	08.04.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/8159
15	200833707	"O‘zsanoatqurilishbank" ATB	11	1	Hans Christoph Mangold	9,1	08.04.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/8159
16	201042345	"O‘zagrosug‘urta" AJ	9	1	Karimov Narboy Ganiyevich	11,1	30.06.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/8/14904
17	201037628	“O‘zbekekspertiza” AJ	5	1	Sharipova Malika Boboxonovna	20,0	18.05.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/8077
18	200856338	Buxorogazsanoatqurilish	9	1	Kasimov Mavlon Abdullax ashimovich	11,1	06.04.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/7976
19	200856338	Buxorogazsanoatqurilish	9	1	Karimov Akramjon Ikromjon o‘g‘li	11,1	06.04.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/7976
20	200127136	"Qo‘qon mexanika zavodi"	9	1	Madraximov Baxtiyorjon Ortiqboy o‘g‘li	11,1	25.06.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/8163
21	200426279	“Bog‘ot-don” AJ	5	1	Imomqulov Tulqin Burxonovich	20,0	26.06.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/8153
22	200328771	"Xovos don mahsulotlari" AJ	5	1	Shukurullayeva Fotima Muminovna	20,0	25.05.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/6/14081
23	200998865	"Do‘stlik don mahsulotlari" AJ	5	1	Suvanova Dilnoza Dilmurod qizi	20,0	26.05.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/6/14087

2. Qaror bilan davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga jalb etiladigan ayollar nomzodlari soni **5 nafar** belgilangan bo'lsa, buyruq bilan 2026-yil 1-yarim yillik rejasi **2 nafar** etib belgilangan.

O'z navbatida, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan 2026-yil 1-yarim yillikda jami **17 nafar** ayollar davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga jalb etilgan hamda indikator ko'rsatkichi 1-yarim yillikda 650,0 foizga, yillik ko'rsatkichga nisbatan esa **340,0 foizga bajarilgan**.

№	STIR	Korxona nomi	Kuzatuv kengashi tarkibi					Acoc
			Jami kuzatuv kengashi aʼzolari soni	shundan ayol nomzodlar soni	F.I.Sh.	Ulush (%)	aʼzolikka saylangan sanasi	
Jami			17					

1	203366731	"O'zbektelekom" AJ	11	1	Kristi Mayn Grovs	9,1	13.03.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/8/14659
2	201051699	"Илпак" АЖ	9	1	Abduraxmanova Sanobar Maxammadaminovana	11,1	05.01.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/8/14525
3	305109064	"Tadbirkorlikni rivojlantirish kompaniyasi" AJ	7	1	Olga Paskault	14,3	07.05.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/8042
4	311415426	"O'zbekiston texnologik metallar kombinati" AJ	7	1	Ibraximjanova Zumrat Amanbayevna	14,3	10.06.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/8/14833
5	200833707	"O'zsanoatqurilishbank" ATB	11	1	Ayupova Sayyora	9,1	08.04.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/8159
6	201221898	"O'zmaxsusmontajqurilish" AJ	5	1	Xafizova Vazira Tulkinovna	20,0	24.06.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/8134
7	201719671	"UZBEK LEASING INTERNATIONAL A.O." AJ	5	1	Ms Alicia Mohd Sabri	20,0	25.06.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/8/14930
8	201037628	"O'zbekeksptiza" AJ	5	1	Sharipova Malika Boboxonovna	20,0	18.05.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/8077
9	201052199	"Issiqlikelektroiya" AJ	5	1	Anoshkina Anjelika Aleksandrovna	20,0	18.06.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/8/14851
10	201108467	Buxoroneftgazavtonaql AJ	9	1	Sayfulloyeva Dildora Avezovna	11,1	30.06.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/6/14352
11	200856338	Buxorogazsanoatqurilish	9	1	Sharigatova Karligash Maratovna	11,1	06.04.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/7976
12	200856338	Buxorogazsanoatqurilish	9	1	Nasirova Dilfuza Xayrullayevna	11,1	06.04.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/7976
13	200856338	Buxorogazsanoatqurilish	9	1	Borodines Irina Leonidovna	11,1	06.04.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/7976
14	200328771	"Xovos don mahsulotlari" AJ	5	1	Shukurullayeva Fotima Muminovna	20,0	25.05.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/6/14081
15	200718864	"Oqtosh don" AJ	7	1	Xudoyberdiyeva Shaxnoza To'ra qizi	14,3	10.06.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/8119
16	200718864	"Oqtosh don" AJ	7	1	Kadirova Iroda Firdavsiyevna	14,3	10.06.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/36/8119
17	200998865	"Do'stlik don mahsulotlari" AJ	5	1	Suvanovna Dilnoza Dilmurod qizi	20,0	26.05.2026	https://openinfo.uz/ru/facts/6/14087

“Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish” pozitsiyasida belgilangan maqsadli indikatorlar ko'rsatkichlarini ijro etilishi uchun davlat budjetidan **1,4 mlrd so'm** mablag'lar ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, 2026-yil 1-yarim yillikda mazkur rejalashtirilgan mablg'lardan **0,6 mlrd so'm** xarajat qilingan, yoki rejalashtirilgan mablag'lar **42,9 foizga o'zlashtirilgan**.

49.4-pozitsiya, budjet dasturi nomi “Davlat aktivlarining hisobini yuritish” bo'yicha.

1. Qaror bilan **respublika mulki** obyektlarini bir tashkilotdan boshqa bir davlat tashkilotiga operativ boshqaruv huquqi asosida beg'araz berishlar soni **60 ta** belgilangan bo'lsa, buyruq bilan 2026-yil 1-yarim yillik rejasi **25 ta** belgilangan.

O'z navbatida, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 8-iyundagi 355-son qarorida belgilangan talablarga asosan 2026-yil 1-yarim yillikda jami **36 ta** davlat mulki obyektlarini bir davlat tashkilotdan boshqa davlat tashkilotiga operativ boshqaruv huquqi bilan o'tkazish uchun qarorlar chiqarilgan hamda o'tkazilgan bo'lib, indikator ko'rsatkichi 1-yarim yillikda 144,0 foizga, yillik ko'rsatkichga nisbatan esa **60,0 foizga bajarilgan**.

T/r	Qaror		Obyekt ma'lumotlari	Topshiruvchi	Qabul qiluvchi
	sanasi	raqami	Hudud		
1	14.01.2026	05/01-10-1-qr	Jizzax viloyati	Jizzax davlat pedagogika universiteti	Sharof Rashidov tuman 62-sonli umumta'lim maktabi

2	20.01.2026	08/01-10-1-qr	Xorazm viloyati	O'simliklar karantini va himoyasi ilmiy-tadqiqot instituti	Xorazm viloyati Chigirtka va tut parvonasiga qarshi kurash xizmati
3	21.01.2026	09/01-10-1-qr	Toshkent shahar	Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti	"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4	02.02.2026	15/01-10-1-qr	Toshkent shahar	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasining Transport qismi	Boshqaruv samaradorligi agentligi
5	13.02.2026	24/01-10-1-qr	Toshkent shahar	O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi	O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining O'zbekiston tarixi davlat muzeyi
6	17.02.2026	27/01-10-1-qr	Farg'ona viloyati	Davlat aktivlari agentligining Farg'ona viloyati hududiy boshqarmasi	Qo'qon shahar hokimligi
7	20.02.2026	28/01-10-1-qr	Xorazm viloyati	Davlat aktivlari agentligi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi	Xorazm viloyati qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi bosh boshqarmasi
8	11.03.2026	38/01-10-1-qr	Toshkent viloyati	Madaniyat vazirligi	Parkent tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
9	17.03.2026	41/01-10-1-qr	Toshkent shahar	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Bino va mol mulklarni vaqtinchalik saqlash direksiyasi	Bino va mol mulklarni vaqtinchalik saqlash direksiyasi Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi
10	19.03.2026	42/01-10-1-qr	Samarqand viloyati	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi	Samarqand shahar 1-son sport maktabi
11	25.03.2026	44/01-10-1-qr	Toshkent shahar	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Toshkent shahar hududiy boshqarmasi	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi
12	30.03.2026	47/01-10-1-qr	Toshkent shahar	Mudofaa sanoati agentligi	Mudofaa vazirligi
13	01.04.2026	49/01-10-1-qr	Andijon viloyati	Kambag'allikni qisqartirish va bandlikka ko'maklashish bo'limi	Andijon viloyati hokimligi
14	07.04.2026	52/01-10-1-qr	Toshkent viloyati	Zangiota tumani Madaniyat bo'limi	Zangiota tumani 2-son sport maktabi
15	07.04.2026	53/01-10-1-qr	Samarqand viloyati	Payariq tumani tibbiyot birlashmasi	Payariq tumani hokimligi
16	10.04.2026	60/01-10-1-qr	Samarqand viloyati	Binolardan foydalanish va kapital qurilish direksiyasi	Samarqand viloyati Favqulodda vaziyatlar boshqarmasi
17	02.04.2026	50/01-10-1-qr	Andijon viloyati	"Andijon viloyati Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash markazi" davlat muassasasi	Andijon viloyati hokimligi
18	10.04.2026	61/01-10-1-qr	Qashqadaryo	Davlat aktivlari agentligining Bino va mol-mulklarni vaqtinchalik saqlash direksiyasi	Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy-tadqiqot instituti "Qashqadaryo mintaqaviy markazi" DM
19	15.04.2026	62/01-10-1-qr	Sirdaryo viloyati	Sog'liqni saqlash vazirligi	Sirdaryo viloyati hokimligi
20	15.04.2026	63/01-10-1-qr	Samarqand viloyati	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazining Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi	Payariq tumani obodonlashtirish boshqarmasi
21	17.04.2026	66/01-10-1-qr	Toshkent shahar	Ipakchilik ilmiy-tadqiqot instituti	Shayhontohur tumani hokimligi
22	21.04.2026	70/01-10-1-qr	Sirdaryo viloyati	Boyovut tumani hokimligi Davlat kadastrlari palatasining Sirdaryo viloyati boshqarmasi	Boyovut tumani Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
23	21.04.2026	71/01-10-1-qr	Navoiy viloyati	Navoiy viloyati sport boshqarmasi tasarrufidagi Navoiy shahar 1-sonli sport maktabi	Navoiy viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi

24	21.04.2026	72/01-10-1-qr	Xorazm viloyati	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Xorazm viloyati hududiy boshqarmasi	O'zbekiston davlat xoreografiya akademiyasi Urganch filiali
25	23.04.2026	74/01-10-1-qr	Toshkent shahar	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Transport qismi	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasi
26	23.04.2026	76/01-10-1-qr	Samarqand viloyati	Narpay tumani tibbiyot birlashmasi	Narpay tumani maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
27	27.04.2026	77/01-10-1-qr	Samarqand viloyati	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Samarqand viloyati hududiy boshqarmasi	Samarqand shahar Maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
28	27.04.2026	78/01-10-1-qr	Buxoro viloyati	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi Buxoro viloyati hududiy boshqarmasi	Buxoro viloyati yoshlar ishlari boshqamasi
29	08.05.2026	85/01-10-1-qr	Navoiy viloyati	Navoiy shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi	Navoiy shahar hokimligi
30	15.05.2026	90/01-10-1-qr	Toshkent shahar	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi Transport qismi	O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Tibbiyot bosh boshqarmasi
31	21.05.2026	01/32-10-1/96-qr	Qoraqalpog'iston Respublikasi	Qishloq xo'jaligi vazirligiga huzuridagi Qoraqalpoq dehqonchilik tadqiqot instituti	Chimboy tumani hokimligi
32	22.05.2026	01/32-10-1/97-qr	Andijon viloyati	Davlat mulki obyektlaridan samarali foydalanish markazi	Andijon shahar maktabgacha va maktab ta'limi bo'limi
33	23.05.2026	01/32-10-1/100-qr	Toshkent, Farg'ona va Namangan viloyatlari	Ekologiya va iqlim o'zgarishi milliy qo'mitasi huzuridagi O'rmon va yashil hududlarni ko'paytirish, cho'llanishga qarshi kurashish agentligi	"Muhofaza etiladigan tabiiy hududlar departamenti"
34	02.06.2026	01/32-10-1/103-qr	Xorazm viloyati	Qishloq xo'jaligi vazirligi huzuridagi "O'zdaverloyiha" davlat ilmiy-loyihalash instituti	Xorazm viloyati transport boshqarmasi
35	06.06.2026	01/32-10-1/106-qr	Samarqand viloyati	Samarqand viloyati mudofaa ishlari boshqarmasi	Tuman (shahar) hokimliklari
36	06.06.2026	01/32-10-1/107-qr	Toshkent shahar	Ijtimoiy himoya milliy agentligi	Milliy gvardiyasi Muhim davlat obyektlarni qo'riqlash boshqarmasi

“Davlat aktivlarining hisobini yuritish” bandida belgilangan maqsadli indikatorlar ko'rsatkichlarini ijro etilishi uchun davlat budjetidan **0,8 mlrd so'm** mablag'lar ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, 2026-yil 1-yarim yillikda mazkur rejalashtirilgan mablag'lardan **0,3 mlrd so'm** xarajat qilingan, yoki rejalashtirilgan mablag'lar **37,5 foizga o'zlashtirilgan**.

49.5-pozitsiya, budjet dasturi nomi “Xususiyashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi” bo'yicha.

1. Qaror bilan ilmiy ishlanmalarni (doklad ma'lumotnomalarini, tahliliy materiallar, uslubiy tavsiyalar, monografiyalar, maqolalar va ilmiy va amaliy xarakterdagi boshqa hujjatlar) tayyorlash soni **138 ta** belgilangan bo'lsa, buyruq bilan 2026-yil 1-yarim yillik rejasi **58 ta** belgilangan.

O'z navbatida, Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan 2026-yil 1-yarim yillikda jami **98 ta** ilmiy ishlanmalar tayyorlangan bo'lib (shundan, 60 ta maqola va tezislari chop etilgan hamda 38 ta ilmiy ishlanmalar, xulosalar va tahliliy ma'lumotlar

tayyorlanib, Davlat aktivlari agentligiga taqdim etilgan), mazkur indikator ko'rsatkichi 1-yarim yillikda 168,9 foizga, yillik ko'rsatkichga nisbatan esa **71,0 foizga bajarilgan.**

“Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi” pozitsiyasida belgilangan maqsadli indikatorlar ko'rsatkichlarini ijro etilishi uchun davlat budjetidan **2,9 mlrd so'm** mablag'lar ajratilishi rejalashtirilgan bo'lib, 2026-yil 1-yarim yillikda mazkur rejalashtirilgan mablag'lardan **1,1 mlrd so'm** xarajat qilingan, yoki rejalashtirilgan mablag'lar **36,7 foizga o'zlashtirilgan.**

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi tomonidan Qarorda belgilangan maqsadli indikatorlar ijrosi holati to'g'risida ma'lumot

T/r	Rivojlantirish dasturi va maqsadli indikatorlar nomi	O'lchov birligi	2026-yil Prognoz	I-yarim yillik Prognoz	I-yarim yillik Ijrosi	yillik miqdorga nisbatan (foizda)
1	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	mlrd. so'm	13,1	7,1	5,2	39,7
1.1	Strategik maqsad: davlat ishtirokidagi korxonalarni hamda davlat ko'chmas mulk obyektlarini xususiy sektorga sotish orqali davlatning iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirish hamda davlat ulushi mavjud xo'jalik jamiyatlarida korporativ boshqaruvni xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish natijasida boshqaruv tizimini takomillashtirish.					
2	1. Budjet dasturi nomi: Ma'muriy boshqaruv	mlrd. so'm	6,1	3,4	2,4	39,3
	<i>Yakuniy natija ko'rsatkichi</i>					
	Korrupsiyaga qarshi kurashish ishlarining samaradorligini baholash natijalari bo'yicha reyting tizimida Davlat aktivlari agentligi ko'rsatkichi	ball	81,0			
	Raqamli rivojlanish darajasini reyting baholash tizimida (nis.egov.uz) Davlat aktivlari agentligi ko'rsatkichi	ball	85,0	85,0		
	Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi					
2.1	Tizim tashkilotlarida o'tkaziladigan rejali ichki audit tadbirlari hamda rejadani tashqari o'rganishlar soni	ta	6	3	3	50
3.	2. Budjet dasturi nomi: Davlat mulkini xususiylashtirish	mlrd. so'm	1,9	1,1	0,7	36,8
	Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi					
3.1	Savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalardagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) va davlat ko'chmas mulk obyektlari soni	ta	550	250	425	77,3
	Savdoga chiqariladigan davlat ishtirokidagi korxonalardagi davlat aksiya paketlari (ulushlari) soni	ta	100	40	34	34
	Savdoga chiqariladigan davlat va davlat ishtirokidagi korxonalarining ko'chmas mulk obyektlari soni	ta	450	150	391	86,9
3.2	Savdoga chiqariladigan qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalari	gektar	4 000,0	1 600	3833,2	95,8
4.	3. Budjet dasturi nomi: Davlat ishtirokidagi korxonalarni boshqarish	mlrd. so'm	1,4	0,8	0,6	42,9
	Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi					

4.1	Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga mustaqil a'zolarni jalb etish	nafar	10	5	27	270
4.2	Davlat ishtirokidagi korxonalar kuzatuv kengashi tarkibiga ayol nomzodlarni jalb etilish	nafar	5	2	17	340
5.	4. Budjet dasturi nomi: Davlat aktivlarining hisobini yuritish	mlrd. so'm	0,8	0,4	0,3	37,5
	Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi					
5.1	Respublika mulki obyektlarini bir tashkilotdan boshqa bir davlat tashkilotiga operativ boshqaruv huquqi asosida beg'araz berish	ta	60	25	36	60
6.	5. Budjet dasturi nomi: Xususiylashtirish va davlat aktivlarini boshqarish muammolarini tadqiq etish markazi	mlrd. so'm	3,0	1,5	1,1	36,7
	Bevosita (to'g'ridan-to'g'ri) natija ko'rsatkichi					
6.1	Ilmiy ishlanmalarni (doklad ma'lumotnomalarini, tahliliy materiallar, uslubiy tavsiyalar, monografiyalar, maqolalar va ilmiy va amaliy xarakterdagi boshqa hujjatlar) tayyorlash	ta	138	58	98	71

Davlat aktivlarini boshqarish agentligi
Ichki audit xizmati bo'limi boshlig'i

T. Alibekov